



TURIZM SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Sayfiddinova Muxlisabonu

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0007-6419-3859

sayfiddinovamuxlisa0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sohasini rivojlantirishda yetakchi xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Germaniya, Yaponiya va Turkiya misolida barqaror turizm, raqamli texnologiyalar va madaniy merosni saqlash amaliyotlari o'rganilgan. O'zbekiston uchun ushbu tajribalarni moslashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: turizm, xorijiy tajriba, barqaror rivojlanish, raqamli texnologiyalar, O'zbekiston.

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В СФЕРЕ ТУРИЗМА

Сайфиддинова Мухлисабону

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В данной статье анализируется опыт ведущих зарубежных стран в развитии туристической отрасли. Устойчивый туризм, цифровые технологии и методы сохранения культурного наследия были изучены на примере Германии, Японии и Турции. Приведены рекомендации по адаптации этих практик для Узбекистана.

Ключевые слова: туризм, зарубежный опыт, устойчивое развитие, цифровые технологии, Узбекистан.

THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE FIELD OF TOURISM

Sayfiddinova Mukhlisabonu

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. This article analyzes the experience of leading foreign countries in the development of the tourism industry. Sustainable tourism, digital technologies and methods of preserving cultural heritage were studied using the examples of Germany, Japan and Turkey. Recommendations on the adaptation of these practices for Uzbekistan are given.

Keywords: tourism, foreign experience, sustainable development, digital technologies, Uzbekistan.

Kirish.

Bugungi kunda turizm – mamlakatimiz iqtisodiyotining ertangi kuni sifatida baholanmoqda. Ertangi kunimiz yorug' bo'lishi uchun bugun uning chiroqlarini yoqishimiz, ertangi kunimiz mustahkam bo'lishi uchun bugun uning mastahkam paydevorini yaratimiz kerak bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. Turizmni rivojlantirish qo'mitasining tashkil qilinishi va uning mintaqaviy tuzilmalari shtat birliklari oshirilgani, hududlarda turizm departamentlari va boshqarmalari, hokim o'rinbosarlari lavozimlari joriy qilingani mazkur sohani boshqarish bo'yicha imkoniyatlarni yanada kengaytirgani turizm sohasining rivojlanishi uchun yangi bosqichni boshlab berdi.

Iqtisodiyotda turizm sohasining rolini oshirish uchun iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, shu jumladan 2025-yilda turizm eksportini 951 mln. AQSh dollaridan 2,2 mlrd. AQSh dollarigacha oshirishni ta'minlaydi. Uzoq istiqbolda O'zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintaq va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi maqsad qilingan.

Adabiyotlar sharhi.

World Tourism Organization (2024) o'zining *International Tourism Highlights* hisobotida pandemiyadan keyingi davrda global turizmning tiklanish jarayonlarini tahlil qiladi. Ushbu manba xalqaro sayyohlik oqimlari, iqtisodiy ko'rsatkichlar va asosiy rivojlanish tendensiyalarini taqdim etib, turizm siyosatini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Hisobot O'zbekiston kabi rivojlanayotgan turistik bozorlarga xalqaro standartlarga moslashishning ahamiyatini ko'rsatadi.

German National Tourist Board (2023) tomonidan e'lon qilingan *Green Travel Germany* hisobotida Germaniyada ekologik turizmni rivojlantirish strategiyalari yoritilgan. U ekologik barqarorlikni turizm infratuzilmasi bilan uyg'unlashtirishning muhimligini ta'kidlab, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik transport vositalarini joriy etish bo'yicha amaliy misollarni keltiradi. Bu yondashuv O'zbekiston uchun ekoturizmni rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Japan Tourism Agency (2023) tomonidan chop etilgan *Smart Tourism Japan* hisobotida raqamli texnologiyalar va "aqlli" turizm konsepsiyasi tahlil qilingan. Virtual gidlar, kengaytirilgan reallik (AR) va mobil ilovalar orqali sayyohlarga xizmat ko'rsatish tajribasi Yaponiyaning innovatsion yondashuvini namoyon etadi. Ushbu amaliyot O'zbekiston turizmida raqamli xizmatlarni kengaytirish uchun muhim yo'nalish sifatida ko'riladi.

Gökovali (2022) Turkiya turizmida madaniy meros va gastronomiyaning o'rnini chuqur o'rganadi. Uning tahliliga ko'ra, UNESCO ro'yxatiga kiritilgan obidalar va milliy taomlarni targ'ib qilish turistik oqimlarni jalb qilish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu tajriba O'zbekistonning boy madaniy merosini xalqaro maydonda samarali targ'ib qilish uchun amaliy asos yaratadi.

Xususan, sohada me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi

Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qator xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli kelishuv va shartnomalar tuzilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlariga yangi mehmonxonalar va turizm infratuzilmasining boshqa inshootlarini qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun uzoq muddatli (15-yilgacha) kreditlar ajratish amaliyoti joriy qilinmoqda, bunda kredit va foizlarni qoplash uchun mehmonxonalarning moliyaviy tushumi va mavsumiy sharoitidan kelib chiqadigan talablar taqdim qilinmoqda.

Tadbirkorlik subyektlariga chet el valyutasidagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar, terminallar ijarasi, erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi naqd pullarni inkassatsiya qilish va chet el valyutasida operatsiyalar amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar uchun yig'implarning (komissiya to'lovlarining) maqbul miqdorlari belgilanmoqda.

Xalqaro turistik munosabatlarning negiziy qoliplarini belgilab beruvchi asosiy institut – Butunjahon turizm tashkiloti (BTT, 2005 yildan BMBTT – Birlashgan millatlarning Butunjahon turizm tashkiloti; ingl. UNWTO – United Nations World Tourism Organization) xisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda sifatli va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Asosiy manbalar sifatida Jahon sayyohlik tashkiloti hisobotlari, Germaniya, Yaponiya va Turkiya turizm agentliklarining rasmiy ma'lumotlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar kontent-tahlil orqali saralanib, xorijiy tajribalar O'zbekiston turizm sohasining rivojlanish imkoniyatlari bilan solishtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon xalqaro turistik tashkilotlarining asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat: turizm industriyasi tashkilotlari qiziqishlarini namoyon etish va himoya qilish; turizm sohasi siyosatini belgilash; jahon turizmi rivojlanishining tarkibiy unsurlarini shakllantirish; tashkilot a'zo mamlakatlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatish hamda ushbu mamlakatlarda turizm industriyasining rivojlanish muammolarini hal qilishga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida amaliy yordam ko'rsatishdan iborat hisoblanadi.

Ahamiyatli tomoni shundaki, xalqaro tashkilotlar (assotsiatsiya, uyushma, alyans shaklida) o'z faoliyatlarini o'zaro hamkorlik va hamjihatlik tamoyillari asosida tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasi faoliyati birqator qonuniy aktlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning ilk yillaridan bugungi kunga qadar, mamlakatimizda zamonaviy sivilizatsiyalashgan turizm bozorining huquqiy asoslarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mamlakatimizda turistik faoliyat qonunchiligi xalqaro huquq tamoyillari va me'yorlari asosida ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda turizm sohasining institutsional (me'yoriy-huquqiy jihatlar) asosini tizimli tarzda quyidagicha aks ettirish mumkin. (1-rasm).

Hududiy turizm bozorida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartiblashtiruvchi me'yoriy-huquqiy institutlar tizimi tuzilmasining milliy darajasiga oid qonunlar, me

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. Xususan, ushbu me'yoriy hujjatda har bir inson va fuqaroning huquq va erkinliklari belgilab berilgan bo'lib, jumladan, unda respublika hududida birdan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish (O'zbekiston Respublikasining

konstitutsiyasi VII-bob, 28-modda), barcha fuqarolar dam olishi (IX-bob, 38- modda), har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi (IX-bob, 40-modda), madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlari kafolatlangan (IX-bob, 42- modda);

Mamlakatimiz turizm sohasida tashkiliy-huquqiy muhitni shakllanishi va rivojlanishining asosiy tendensiyasi nafaqat turizm tashkilotchilarini faoliyati va turistik

mahsulot iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni, balki xizmat ko'rsatish sifati, turizmda xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro standartlarga amal qilish masalalarini mujassam etgan turizm tarmog'ining fundamental va keng qamrovli qonunchilik negizini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ldi.



1-rasm. Turizm sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi

Turizm sohasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi institutsional muhit

- *O'zbekiston Respublikasining qonunlari*. Xususan, O'zbekiston Respublikasining
- *Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida*||gi (1996y.), Turizm to'g'risida||gi (1999y.),
- *Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida*||gi (1993y.),
- *Sug'urta faoliyati to'g'risida*||gi,
- *O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to'g'risida*||gi (1999y.),
- *Alohida faoliyat turlarini litsenziyalashtirish to'g'risida*||gi (2000y.) qonunlari;
- *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari*;
- *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari*;
- *"O'zbekturizm"MKning (hozirda O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining) buyruqlari va qarorlari*;
- *Boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari*.

Ayniqsa, turizm bozorida turistik faoliyatni huquqiy ta'minlash va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim o'rinni egallab kelmoqda O'z navbatida, –O'zbekturizm MK (turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi) buyruqlari va farmoyishlari turizmning yaxlit tizim sifatidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me'yor-institutlar sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda turizm sohasining huquqiy ta'minotini

takomillashtirish borasida bir qator masalalar o'z yechimlarini kutmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi —Turizm to'g'risida||gi Qonuniga zamonaviy turistik munosabatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar.

Xorijiy davlatlar tajribasi turizm sohasini rivojlantirishda O'zbekiston uchun muhim yo'nalish va amaliy yondashuvlarni taklif etadi. Germaniyaning ekologik barqarorlikka asoslangan turizm modeli, Yaponiyaning raqamli innovatsiyalar va "aqlli" turizm konsepsiyasi hamda Turkiyaning madaniy meros va gastronomiyani integratsiyalash tajribasi O'zbekistonning turizm siyosati va infratuzilmasini yanada takomillashtirishga yordam beradi. Bu tajribalarni mamlakat sharoitiga moslashtirish turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish, xalqaro sayyohlarni jalb etish va milliy merosni targ'ib qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, xorijiy amaliyotlarni o'rganish va tatbiq etish O'zbekiston turizm sohasining global raqobatbardoshligini kuchaytiradi va barqaror rivojlanishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

German National Tourist Board. (2023). *Green travel Germany: Sustainable tourism development report*. Berlin: Author.

Gökovali, U. (2022). *Cultural heritage and gastronomy in Turkish tourism*. Ankara: Tourism Research Institute.

Japan Tourism Agency. (2023). *Smart tourism Japan: Digital innovation in tourism sector*. Tokyo: Author.

Qonun (2000). *O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni*. O'zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent: Adolat.

Qonun (2012) *O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni*. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami.

World Tourism Organization. (2024). *International tourism highlights*. Madrid: UNWTO.